
Qo'shtepa tumanidagi 20-DMTT qayta bunyod etildi

Qo'shtepa tumanidagi "Shahartepa" mahallasida joylashgan 20-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti investisiya dasturi asosida "Qurilish hamkor" MCHJ tomonidan qayta ta'mirlanib, qo'shimcha yangi zamonaviy oshxona binosi qurib bitkazildi.

Muassasa 180 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, hozirda yangi mebel va zamonaviy, innovasion ta'lim jihozlari bilan ta'minlanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, bolajonlarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, qisqa fursatlarda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.











2024-12-13 08:41:37